



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№6(6)


2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 248 sahifa,
22-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

| | |
|--|----|
| “Kitobxonlar klubi” modelining ingliz tili to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari..... | 10 |
| Madaminova Gulzira Gulamkadirovna | |
| Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida suggestiv yondashuvning o‘rni | 14 |
| Arolov Davronjon Davlataliyevich | |
| Akmeologik yondashuv asosida maktabgacha ta‘lim direktor o‘rinbosarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish | 19 |
| Asatullayeva Sitora Dilmurod qizi | |
| Hozirgi o‘zbek tilida neologizmlarning tarixi va bugungi kun taraqqiyoti..... | 22 |
| Bektosheva Mehinbonu Abdumalik qizi | |
| Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bolalarida jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari | 26 |
| Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi | |
| Korpus lingvistikasi vositalari yordamida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til tahlili ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi..... | 30 |
| Eshonqulova Sarvinoz Yashinovna | |
| Talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda sun‘iy intellektning o‘rni va ahamiyati..... | 35 |
| Hojiyeva Nasiba Bahodirovna | |
| Logopedik mashg‘ulotlarni tashkil etish va rejalashtirish moduliga oid mustaqil ta‘lim topshiriqlarini integrativ modellashtirishning innovatsion texnologiyalari..... | 39 |
| Ibroximova O‘g‘iloy Inomjon qizi | |
| Jismoniy tarbiya darslarida ortiqcha vaznli bolalarga differensial yondashuvning ahamiyati | 43 |
| Yuldashev Bobirjon Noibjon o‘g‘li | |
| Maktabgacha ta‘lim tashkilotida xalq og‘zaki ijodi vositasida bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishning ahamiyati..... | 48 |
| Muradxanova Munisaxon Ikrom qizi | |
| Bo‘lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlari | 54 |
| Nusratova Mexriniso Baxshilloevna | |
| Inklyuziv ta‘lim tushunchasi va uning zamonaviy pedagogik paradigmalar tizimidagi o‘rni..... | 59 |
| Pulatova Dilfuza Azamkulovna | |
| Magistrlarda “Imposter sindromi”ni yengish orqali kreativ salohiyatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari..... | 66 |
| Qayumov Baxtiyor Zokirjon o‘g‘li | |
| Kichik maktab yoshidagi bolalar nutqining fonematik rivojlanishi | 70 |
| Qurbonova Sevara Suyunovna | |
| Mikrobiologiya ta‘limida individual pedagogik texnologiyalarni joriy etish mexanizmlari | 74 |
| Raxmatov Oxunjon Soibjonovich | |
| “Estetik tarbiya”, “kreativ kompetensiya”, “estetik tarbiya mexanizmlari” tushunchalarining konseptual asoslari..... | 79 |
| Saidova Feruza Akramovna | |
| Zamonaviy ta‘lim jarayonida neyropedagogika yordamida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish..... | 84 |
| Sidiqova Yulduz Sobirovna | |
| “So‘nggi jadid” Begali Qosimovning ilmiy-pedagogik merosi..... | 88 |
| Toxirova Dilshoda Inom qizi | |
| Ona tili darslarida o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar ustida ishlash | 92 |
| Turg‘unova Nilufar Muxiddin qizi | |
| Ingliz, golland va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning lingvostatistik xususiyatlari..... | 96 |
| Xaydarova Go‘zalxon | |



| | |
|--|-----|
| Maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda yumshoq ko'nikmalarning ahamiyati..... | 101 |
| <i>Xolmatova Dilshoda Sherali qizi</i> | |
| Farzandlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda oilaning pedagogik imkoniyatlari | 105 |
| <i>Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna</i> | |
| Yoshlarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali sotsial manipulyativ ta'sirlarga psixologik barqarorlikni shakllantirish..... | 109 |
| <i>Qosimova Sarvinoz Baxtiyorovna</i> | |
| O'quvchilarda modellashtirish ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashadigan faoliyat usullari | 114 |
| <i>Abdurazzaqov O'ktam Abduqayumovich</i> | |
| Dizartriya shakllarining klinik-patogenetik tahlili va differensial diagnostikasi | 120 |
| <i>Axmedova V. T.</i> | |
| Boshlang'ich sinflarda fanlararo yondashuvga asoslangan integrativ topshiriqlar ishlab chiqishning uslubiy asoslari..... | 127 |
| <i>Elmurodova Inoyat Abdumutalibovna</i> | |
| Deviant xulq-atvorli o'smirlar ijtimoiylashuvining psixologik determinantlari..... | 132 |
| <i>Elov Ziyodullo Sattorovich</i> | |
| Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida talabalar o'quv natijalarini baholashning pedagogik modeli..... | 138 |
| <i>Ernazarov Mirzohid Yo'ldosh o'g'li</i> | |
| Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi | 145 |
| <i>Mamadaliyeva Zarina Raxmat qizi</i> | |
| Boshlang'ich ta'limda kognitiv tilshunoslikni joriy etish masalalar | 150 |
| <i>Mamatova Gulshan Amankulovna</i> | |
| Doston musiqiy merosini o'rganishni uslubiy takomillashtirish mazmuni..... | 153 |
| <i>Qo'shayev Ilhom Axtamovich, Nasirova Sevinch Ismatovna</i> | |
| "Elektr yoritish" fanida mustaqil ta'limning zamonaviy shakllari..... | 157 |
| <i>Nasretdinova Feruza Nabiyeвна</i> | |
| Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish | 162 |
| <i>Nazarova Dildora Asatovna, Kuchkorova Robiya Shuxrat qizi</i> | |
| Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni..... | 167 |
| <i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i> | |
| A Methodological Model for Developing Pedagogical Reflection in Pre-Service EFL Teachers..... | 172 |
| <i>Rahimberdiyeva Maftuna Rakhimberdi kizi</i> | |
| Bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzining kasbiy kompetentlikka ta'siri | 177 |
| <i>Raximova Saboxat Qaxramon qizi</i> | |
| Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda interaktiv texnologiyalar va faol ta'lim metodlarining samaradorligi | 182 |
| <i>Safarova Nigora Nasilloevna</i> | |
| Maktabgacha ta'lim jarayonida interfaol usullarning mazmuni, turlari va funksional ahamiyati..... | 190 |
| <i>Safarova Soliha Ilhomovna</i> | |
| Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati... | 196 |
| <i>Saotmuratova Zebo Yuldash qizi</i> | |
| Musiqqa ta'limida interfaol metodlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari..... | 200 |
| <i>Saparov Raxim Muratbayevich</i> | |
| Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish ijtimoiy zarurat sifatida..... | 204 |
| <i>Xolmatova Yodgoroy Baxtiyorjon qizi</i> | |
| Energetika fanlarini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik afzalliklari..... | 208 |
| <i>Zoxidov Iqboljon Zokirjonovich</i> | |
| Методическая модель контекстуального обучения в формировании лингвокультурной компетенции при обучении русскому языку в национальных группах | 213 |
| <i>Рустамова Ферузaxon Махмуджановна</i> | |

| | |
|--|-----|
| Integrating Artificial Intelligence into EFL Academic Writing Instruction: Opportunities, Challenges, and Pedagogical Implications..... | 218 |
| Allamurodov Elyor Tursun ugli | |
| Sahna nutqida adabiy tur va janrlarning metodik talqini..... | 223 |
| Dilrabo Jumanova | |
| Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim ekotizimi: imkoniyatlar va xavflar | 227 |
| Oqil Ochilov Lutfullo o'g'li | |
| Z avlod bilan ishlashda ta'lim va tarbiyaga oid zamonaviy tendensiyalar | 232 |
| Ravshanov Sanjar Tolibjonovich | |
| Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati... | 235 |
| Saotmuratova Zebo Yuldash qizi | |
| Tarixiy-ilmiy materiallar va zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining geometrik tafakkurini rivojlantirish metodikasi..... | 239 |
| Toshpulatova Mamura Ismailovna, Mannonova Dilafro'z Ravshan qizi | |
| Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish va muvofiqlashtirish ... | 244 |
| Xakimov Abdug'ulom Soyibjonovich | |



DOSTON MUSIQIY MEROSINI O'RGANISHNI USLUBIY TAKOMILLASHTIRISH MAZMUNI

Qo'shayev Ilhom Axtamovich

Buxoro davlat pedagogika instituti
pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti
“musiqa va tasviriy san’at” kafedrasida katta o'qituvchisi

Nasirova Sevinch Ismatovna

Buxoro davlat pedagogika instituti
pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti
“musiqa va tasviriy san’at” kafedrasida 2-MUZ-24 guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida bakalavrlar tayyorlash jarayonining mustaqillikdan keyingi davrdagi holati o'rganilib, hozirgi kunda ushbu faoliyatni amalga oshirishning tashkiliy-hududiy asoslari tahlil etilgan. Ishning birinchi bobida mustaqillik davrida ta'lim sohasida, xususan, oliy ta'lim muassasalarining pedagogika fakultetlari musiqa ta'limi yo'nalishlaridagi o'quv jarayonining o'ziga xos xususiyatlari hamda unda mavjud muammolar atroflicha o'rganilib, tahlil qilingan. Shuningdek, ishda ko'tarilgan muammoga doir islohotlar tavsiflangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining sohaga oid farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, shuningdek, sohani boshqarish uchun mas'ul bo'lgan tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan qonun va qonunosti hujjatlari xorijiy tajriba bilan qiyosiy tahlil qilingan. Musiqiy ta'limning tashkiliy jarayonlarini yanada takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: doston, nomalar, baxshilar, Alpomish, Go'ro'g'li, Qutadg'u bilig, Farhod va Shirin, Layli va Majnun, tuyg'u, Oshiq G'arib va Shohsanam.

Abstract: This article examines the state of bachelor training in higher education institutions of the Republic of Uzbekistan after independence and analyzes the organizational and territorial foundations of its implementation at the present stage. The first chapter examines the development of education during the independence period, particularly the specific features of the educational process in music education programs at pedagogical faculties of higher education institutions and the existing challenges in this field. The study also describes reforms related to the issue under consideration. In particular, decrees of the First President of the Republic of Uzbekistan, resolutions of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, as well as legislative and regulatory acts adopted by authorized institutions responsible for the sector are analyzed in comparison with international experience. The article offers proposals and recommendations for further improvement of the organizational processes of music education.

Key words: epic, melodies, bakhshis, Alpomish, Gorogly, Qutadg'u bilig, Farhad and Shirin, Layli and Majnun, emotionality, Ashiq Gharib and Shahsanam.

Аннотация: В статье рассматривается состояние процесса подготовки бакалавров в высших учебных заведениях Республики Узбекистан в период после обретения независимости, а также анализируются организационные и территориальные основы его реализации на современном этапе. Первая глава работы посвящена развитию образования в период независимости. В частности, подробно изучены особенности образовательного процесса по направлениям музыкального образования педагогических факультетов высших учебных заведений и проанализированы существующие в данной сфере проблемы. В работе также охарактеризованы реформы, связанные с рассматриваемой проблемой. В частности, проанализированы указы Первого Президента Республики Узбекистан, постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан, а также законодательные и подзаконные акты, принятые организациями, ответственными за управление отраслью, в сопоставлении с зарубежным опытом. Представлены предложения и рекомендации по дальнейшему совершенствованию организационных процессов музыкального образования.

Ключевые слова: эпос, напевы, бахши, Алпомиш, Гёроглы, Кутадгу билиг, Фархад и Ширин, Лайли и Меджнун, эмоциональность, Ашик Гариб и Шахсанам.

KIRISH

Doston xalq og'zaki ijodining qadimiy turlaridan biridir. "Doston" so'zi qiziqarli voqealarni hikoya qilish, ulug'lash va madh etish ma'nolarini bildiradi. Dostonlar asosan ikki usulda yaratilgan. Birinchisi, asrlar davomida dostonchi baxshilarning og'zaki jonli ijrolari orqali avlodlardan avlodga o'tib, so'z, she'r, ovoz va soz vositasida kuylab kelingan "Alpomish", "Go'ro'g'li" kabi xalq dostonlaridir. Ikkinchisi, shoirlar tomonidan yozma shaklda yaratilgan Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" kabi dostonlaridir. Ommaviy axborot vositalari, kino va teatr tomoshalari mavjud bo'lmagan uzoq o'tmishda ajdodlarimiz ruhiyatiga kuchli emotsional ta'sir ko'rsatib, ularning tarbiyasida muhim vositalardan biri bo'lgan dostonlar bugungi kunda ham o'z badiiy qimmatini yo'qotmagan. Hozirgi kunda respublikamizning Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm, Namangan viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida xalq dostonlarini yuksak mahorat bilan ijro etib kelayotgan ko'plab taniqli baxshilar, jirovlar va xalfalar faoliyat yuritmoqda.

Mashhur baxshi ustozlar boshchiligidagi ustoz-shogird an'analari asosida dostonchilik maktablarining shakllanishi, dostonlar ijrosining audio va video yozuvlarini tayyorlash, ularni ommaviy axborot vositalari orqali targ'ib qilish, baxshilar ko'rik-tanlovlarini tashkil etish hamda "O'zbekiston xalq baxshisi" faxriy unvonining ta'sis etilishi mustaqillik yillarida dostonlarga bo'lgan qiziqish va e'tiborning ortib borayotganidan dalolat beradi. Og'zaki an'anadagi kasbiy musiqa merosimiz tarkibidagi dostonchilik san'atining ko'p asrlik tarixi davomida yaratilgan qahramonlik dostonlari orasida eng mashhurlaridan biri "Alpomish" dostonidir. Shu sababli 1999-yil 6-noyabrda qadimiy Termiz shahrida "Alpomish" dostoni yaratilganining 1000 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan tantanali tadbirda Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov shunday degan edi: "Alpomish" dostoni bizga insonparvarlik fazilatlaridan saboq beradi, odil va haqqo'y bo'lishga, o'z yurtimizni, oilamiz qo'rg'onini qo'riqlashga, do'stu yoru birodarlarimizni, or-nomusimizni, ota-bobolarimizning muqaddas mozarlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o'rgatadi".

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Dostonlarni filologik jihatdan o'rganishga qaratilgan qator tadqiqotlar mavjud. V. M. Jirmunskiy, Hodi Zarif, M. Saidov, Q. Maqsetov, T. Mirzayev, H. Abdullayev, O. Madayev, N. Soburov, B. Sarimsoqov, M. Murodov, S. Ro'zimboyev va boshqa tadqiqotchilarning asarlari shular jumlasidandir. Dostonlarning musiqiy asoslarini o'rganish borasida nisbatan kam bo'lsa-da, bir qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. I. Akbarov, Yu. Kon, A. Jabborov, M. Yusupov, O. Halimov, A. Xayratdinov, K. Olimboyeva, M. Jiyemuratov, xususan, yirik tadqiqotchi olimlar F. Karomatli va B. Matyoqubovlarning ilmiy ishlari bunga misol bo'la oladi. Mustaqillik sharofati bilan umumiy o'rta ta'limning musiqa madaniyati fanidan namunaviy o'quv dasturlariga ayrim doston namunalari kiritilgan. Dasturda qaysi dostonlardan qanday namunalarni tanlash aniq ko'rsatilmagan bo'lsa-da, "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Oshiq G'arib va Shohsanam" kabi dostonlardan nomalar tanlab, o'quvchilar bilan asosan tinglash hamda qisman parchalarni kuylash tavsiya etilgan.

Biroq maktab musiqa darsliklarida faqat 7-sinf musiqa darsligida "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonidan "Bolama o'xshaydi ovozing seni" nomasigina berilgan bo'lib, boshqa doston namunalari keltirilmagan. Bolalar musiqa va san'at maktablari, oliy hamda o'rta maxsus musiqa ta'limi tizimida o'qitiladigan "O'zbek xalq musiqa ijodiyoti", "An'anaviy qo'shiqchilik va maqom asoslari", "An'anaviy va xalq qo'shiqchiligi", "Mumtoz qo'shiqchilik" fanlari hamda kuylash faoliyati bilan bog'liq jamoaviy va yakka ijrochilik fanlarining namunaviy o'quv dasturlarida dostonlar masalasiga yetarli darajada e'tibor qaratilmagan. Buning asosiy sababi musiqiy-pedagogik ta'lim yo'nalishida sobiq davr siyosati ta'sirida shakllangan ayrim kamchiliklarning hanuzgacha to'liq bartaraf etilmaganligi va mazkur masalaning yetarli darajada tadqiq etilmayotganligi bilan izohlanishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mustaqillik yillarida dostonchilik an'analarni o'rganish, mukammal ijrolarni yozib olish, rivojlantirish, targ'ib qilish hamda asrab-avaylab kelajak avlodlarga yetkazish borasida salmoqli amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo hozirgi kunda doston nomalarining yorqin namunalarini ta'lim nazariyasining (didaktika) tamoyillari asosida tanlash, ularni musiqiy-nazariy jihatdan tahlil etish va tasniflash, pedagogik imkoniyatlarini aniqlash, uzluksiz musiqa ta'limi mazmunidagi o'rnini belgilash hamda turli musiqa mashg'ulotlari jarayonida o'rganish va o'zlashtirishning metodik xususiyatlarini tadqiq etish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Shu asosda tegishli musiqa fanlari o'quv dasturlariga kiritish uchun tavsiyalar ishlab chiqish va dars materiallarini o'z ichiga olgan maxsus o'quv qo'llanmalar yaratish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid asoslangan musiqiy-pedagogik va metodik tavsiyalar, darslarda foydalanish uchun tayyorlangan materiallar matnlari hamda doston nomalaridan tanlab olingan nota namunalari mazkur o'quv qo'llanmada jamlangan bo'lib, bu boradagi izlanishlarning kamtarona natijasi sifatida baholanishi mumkin.



TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbek xalqining ildizlari qadim zamonlarga borib taqaladigan musiqiy merosi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan holda yashab kelmoqda. U xalq og'zaki ijodi (folklor), rivojlangan ashula va cholg'u asarlari, dostonlar hamda maqom san'atini o'zida mujassamlashtiradi. Qahramonlik va qahramonona-lirik mazmundagi epik asarlar – dostonlar ushbu meros tarkibida alohida o'rin tutadi. Shuningdek, o'zbek cholg'u asboblari, musiqa amaliyoti va ijrochilik uslublari bilan bog'liq cholg'u musiqa janrlari ham o'zining rang-barangligi va boyligi bilan ajralib turadi. O'zbek musiqa folklori har qanday xalq ijodi singari mehnatkash xalqning orzu-intilishlari, turmush tarzi, axloqiy qarashlari hamda ijtimoiy va milliy ozodlik uchun kurashining badiiy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. O'zbek xalq musiqasining mavzu jihatidan serqirraligi, janrlarga boyligi va hayotda tutgan o'rning xilma-xilligi ham aynan shu omillar bilan bog'liqdir.

O'zbek qo'shiqchilik va cholg'u musiqasi janrlari o'z funksiyasi hamda turmushdagi o'rniga ko'ra ikki asosiy guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga ma'lum vaqt yoki muayyan sharoitda ijro etiladigan ashula va cholg'u kuylar kiradi. Bular jumlasiga oilaviy marosim qo'shiqlari, mehnat qo'shiqlari, allalar hamda turli tantana va marosimlarda ijro etiladigan cholg'u kuylari kiradi. Ikkinchi guruhga esa istalgan vaqtda va har qanday sharoitda ijro etilishi mumkin bo'lgan ashula-qo'shiqlar hamda cholg'u kuylari mansubdir. Ular qatoriga lapar, yalla, ashula, qo'shiq, cholg'u kuylari, cho'lama va dostonchilik kuylari kiradi. Har bir guruh o'ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan, birinchi guruhga mansub ashula va qo'shiqlarning mavzusi muayyan marosim yoki vaziyat bilan chambarchas bog'liq bo'lib, undan deyarli chetga chiqmaydi. Ba'zan uchraydigan mavzudan chekinishlar esa lirik mushohada yoki umumlashtirilgan nasihat ruhidagi mazmun bilan cheklanadi. Shunday janrlardan biri bo'lgan "Yor-yor" qo'shiqlari xalq orasida qadimdan keng tarqalgan. Ularning ko'plab namunalari Muzayyana Alaviyaning "O'zbek xalq marosim qo'shiqlari" asarida ham yoritilgan.

"Yor-yor"larning mavzu doirasi nihoyatda keng. Ularda hazil-mutoyiba, quvnoqlik, yengil yumor yoki achchiq hajviy ohanglar uchrashi mumkin. Bu holat turmushga chiqayotgan qizning, to'y marosimining yoki kuyovning axloqiy fazilatlarini, jamiyatdagi mavqei va insoniy sifatlarini bilan bog'liqdir. Shuningdek, qo'shiqning qanday ruhda ijro etilishi ko'p jihatdan ijrochiga ham bog'liq. Masalan, qizni kuyovnikiga kuzatish marosimida "Yor-yor"ning ayrim bandlari kayvoni ayol yoki kelinning qarindoshlari tomonidan kuylansa, unda kelinning ijobiy fazilatlarini, odobi va kamoloti madh etiladi. Agar qo'shiq kelinning dugonalari tomonidan ijro etilsa, unda ota-onadan, tug'ilib o'sgan xonadondan ayrilish, sevgan yoriga yetolmaslik yoki majburiy turmush qurish bilan bog'liq mungli kechinmalar ustunlik qilishi mumkin. Demak, "Yor-yor"ning mazmuni va emotsional yo'nalishi turli omillar bilan belgilanadi. O'zbek "Yor-yor"lari ijro uslubi va musiqiy tabiatiga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi. Hozircha ular shartli ravishda Farg'ona, Zarafshon va Xorazm "Yor-yor"lari sifatida tasniflanadi. Kelgusidagi ilmiy izlanishlar natijasida ushbu tasnif kengayishi yoki qisqarishi mumkin.

Umuman olganda, barcha turdagi "Yor-yor"larning musiqiy asosini ma'lum metroritmik tartibga solingan tor diapazonli kuylar tashkil etadi. Ular kuy tuzilishi, ohang xarakteri, ritmi, ijro uslubi, shevasi va emotsional ta'sirchanligi bilan bir-biridan farqlanadi. Mehnat qo'shiqlari esa mehnat jarayonida – qo'sh haydash, hosil yig'ish, paxta terimi, charx yigirish, ov qilish, meva terish kabi ishlarda ijro etiladi. Ushbu qo'shiqlarda inson kechinmalari, mehnat faoliyati va tabiat hodisalari o'zaro qiyoslash asosida ifodalanadi. Allalar onalarning farzandlariga bo'lgan mehr-muhabbatining musiqiy ifodasidir. Tarixiy davrlarda allalarda ayollarning turmushdagi iztiroblari, armonlari va kechinmalari ham aks etgan. Hozirgi davr allalari esa asosan ezgu orzu-umidlar va bolaga bo'lgan mehr-muhabbatni ifodalaydi. Laparlar boshqa qo'shiqlardan voqeabandligi, raqsobop kuyga egaligi hamda dialog shaklida ikki ijrochi tomonidan kuylanishi bilan ajralib turadi. Ularning matnlari asosan ishq-muhabbat, hazil-mutoyiba, oilaviy munosabatlar va ijtimoiy hayotdagi ayrim holatlarni aks ettiradi.

Termalar dostonchi shoirlar, jirovlar, baxshilar va sozandalar tomonidan to'y-hashamlar, sayillar va ommaviy yig'inlarda ijro etiladi. Odatda, termalar doston ijrosidan oldin tinglovchilar e'tiborini jalb qilish va ma'lum ruhiy muhit yaratish maqsadida kuylanadi. Ularning aksariyati didaktik xarakterga ega bo'lib, mardlik, adolat va to'g'rilikka da'vat etadi. Qo'shiq janri nisbatan kichik diapazonli kuyga ega bo'lib, barmoq vaznidagi mustaqil she'riy to'rtliklar asosida shakllanadi. Har bir she'riy misraga muayyan melodik tuzilma mos keladi. Qo'shiq o'zbek xalq musiqasining eng ommabop janrlaridan biri bo'lib, mazmunining serqirraligi va hayotiyiligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Qo'shiq kuylariga ritmning ravonligi va aniqligi xosdir.

XULOSA

Qo'shiq janrida har bir misradan so'ng yoki har bir banddan, yoxud uning ma'lum qismidan keyin takrorlanib keladigan naqoratlar xarakterlidir. Qo'shiqqa xos bo'lgan musiqiy-poetik xususiyatlarning ko'pgina belgilari lapar janri uchun ham xosdir. Yalla o'zbek xalq musiqa janrlari orasida alohida o'rin egallaydi. Odatda, yalla qo'shiq va raqs jo'rligida ijro etiladi hamda ikki turga bo'linadi. Birinchi turdagi yallalarning kuyi nisbatan tor diapazonli bo'lib, she'rning har bir bandi va uning o'yinlari yakkaxon yallachi tomonidan ijro etiladi, naqorat esa

sozandalar yoki ashulachilar guruhi jo'rligida kuylanadi. Ikkinchi turdagi yallalarning kuyi keng diapazonli bo'lib, band naqorat bilan boshlanadi va naqorat bilan yakunlanadi. Ashula janri kuyning cho'ziqligi, rivojlanish jaryonida diapazonning kengligi hamda ritmning sezilarli darajada sinkopaligi bilan ajralib turadi. Odatda, ashula kuyi she'riy matnning sog'inch, alam va hasratni ifodalovchi ishqiy-lirik mazmuniga mos ravishda yaratiladi. Ashulaning rivojlangan namunalari esa og'zaki an'anadagi professional musiqa san'atiga mansubdir. Bunga ashula janrining yana bir turi – katta ashula yoki patnis ashula ham kiradi.

Katta ashula o'z kuyi xarakterining o'ziga xosligi, diapazonining kengligi hamda uch oktavaga yaqin diapazonni qamrab olishi bilan ajralib turadi. Shunday qilib, o'zbek xalq musiqa merosida dostonlar, termalar, laparlar, yallalar, allalar va ashulalar muhim o'rin tutadi. Ular xalqning ma'naviy dunyosi, tarixiy xotirasi, milliy qadriyatlari va estetik qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan noyob badiiy-musiqiy meros hisoblanadi. Dostonchilik va u bilan bog'liq musiqiy janrlarni musiqa ta'limi mazmuniga kengroq joriy etish yosh avlodning milliy madaniyatga hurmat ruhida tarbiyalanishiga, badiiy-estetik tafakkurining rivojlanishiga hamda milliy musiqa merosining uzviy davomiyligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Кушаев И. А., Ахтамов И. И. Педагогические основы традиционной профессиональной музыки (на примере искусства дастана) // ACADEMY: научно-методический журнал. – 2020. – Ноябрь. – С. 59-62.
2. Кушаев И. А., Ахтамов И. И. Проблемы индивидуальных музыкальных занятий в вузах Узбекистана // ACADEMY: научно-методический журнал. – 2021. – № 3(66).
3. Kushaev I. A. Musical pedagogical fundamentals of doston art // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Vol. 10. – P. 1061-1067.
4. Kushaev I. A. Music pedagogical foundations of doston art // International Engineering Journal for Research & Development. – 2020.
5. Kushaev I. A. Bakhshi art schools and their performing features // Scientific Reports of Bukhara State University. – 2020. – № 3. – P. 295-299.
6. Қўшаев И. А. Муסיқа маданияти дарсларида халқ муסיқаси намуналаридан фойдаланишнинг аҳамияти // Scientific Progress. – 2021. – № 1.
7. Ахтамов И. И. Мақом анъанавий касбий муסיқа намуналарини ўрганишда овоз хусусиятлари // Scientific Progress. – 2021. – № 1.
8. Kushaev I. A. Musical pedagogical fundamentals of doston art // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Vol. 10. – P. 1061-1067.
9. Qo'shayev I. A. Vaxshichilik festivallarining musiqiy ta'limdagi o'rni // Mu'allim xem uzliksiz bilimlendiриу: илмий-методик журнал. – 2023. – № 5/3. – Nukus. – В. 233-238.
10. Юсупова Н. Муסיқа саводи, методикаси ва ритмика. – Тошкент, 2010.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(6)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.